



## XOTIN-QIZLAR SOG'LIGINI MUSTAHKAMLASHDA JISMONIY TARBIYA VA SPORT TURLARINING AHAMIYATI

**Hamrayeva Zuhro Bahodirovna**

"Jismoniy tarbiya va sport faoliyati" kafedrasи o'qituvchisi

Toshkent moliya instituti

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7996944>

### ARTICLE INFO

Received: 24<sup>th</sup> May 2023

Accepted: 30<sup>th</sup> May 2023

Online: 31<sup>th</sup> May 2023

### KEY WORDS

*Xotin-qizlar sporti, emansipasiya, jismoniy faollik, jismoniy ishchanlik, mashq ko'riganlik, atletizm, giperandrogeniya, adaptasiya.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada "Jismoniy madaniyat" ta'lim yo'naliishi o'quv jarayonini optimallashtirish maqsadida xotin-qizlar sporti muammolari va jismoniy faollik qonuniyatlari tavsifi bayon etilgan.*

Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish, aholi, ayniqsa yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish maqsadida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi va O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasida belgilangan vazifalar qatorida xotin-qizlar sporti muammolariga e'tibor qaratilgan.

Uzoq o'tmish davrlaridan boshlab xotin-qizlar erkaklar bilan o'zlarining teng huquqlilik, erkinlik va mustaqilliklari uchun qaysidir ma'noda kurashib kelganlar. Xotin-qizlarning erkinlik darajasi, ularning ijtimoiy hayotdagi ishtiroti, tarixan har qanday jamiyat rivojining sifat ko'rsatkichi ko'rinishida qabul qilingan. Oxirgi 100 yil ichida dunyoda tanilgan olimalar, faylasuflar, shoiralalar va jahon arenasida betakror sport yutuqlari bilan o'chmas iz qoldirgan xotin-qizlar hissasi aynan o'sha jamiyat, millat rivojining salmoqli sifat ko'rsatkichidir. Xotin-qizlar fenomenining ijobiy "portlash effekti" natijasida erkaklar qatorida nafaqat o'z mutaxasisliklari va ma'naviy sohada, balki katta sport yutuqlari sari intilish borsida ham tenglikka erisha olishdi.

Psixologiyada "ideal" ayol va "ideal" erkak tushunchalari mavjud bo'lib, har birida maxsus xususiyatlar to'plami mavjud. Psixologiya fani xulosasidan farqli Nemis psixolog O.Vayningerning tadqiqiy ma'lumotlariga ko'ra sof ma'noda na "ideal" ayol, na "ideal" erkak tabiatda uchramasligi isbotlangan. Insonning asl tabiatida ikki qutblilik mavjud bo'lib, qaysi tomon hayotda aksariyat namoyon bo'lishi oqibatida shaxsning umumiyligi obrazni shakllanadi.



Insoniyat jamiyatining zamonaliviy ko'rinishlarida sof erkaklar sport turining qolmaganligini kuzatish mumkin. Dunyo bo'yicha xotin-qizlar yakka kurash, og'ir atletika kabi oldingi davrlarda tasavvurga sig'magan sport turlari bilan shug'ullanishadi.

Xotin-qizlar sportiga xos muammolarni o'rganish, ilmiy tekshiruvlarga asoslangan metodikalarni ishlab chiqish zarurati shubhaga o'rinn bermaydi. Hozirgi davrga qadar xotin-qizlarga xos sport mashg'ulotlari mavzusida yakdil qarashlar mavjud bo'lmasada, bu masala yuzasidan ikki yo'nalishdan iborat tubdan farq qiluvchi yondashuvlarni belgilash mumkin.

Professor V.Platonov e'tirofiga ko'ra birinchi yo'nalish olimlari va amaliyotchilari tomonidan xotin-qizlarning ovarial-menstruial sikl o'zgarishlarini mashg'ulot mezotsikllarga moslashtrishni, ikkinchi yo'nalishda esa sportchi xotinqizlar mashg'ulotlarini sportchilarning umumiy qonuniyatları asosida tashkil etishni tavsiya etishadi.

Hozirgi davrda xotin-qizlar tomonidan aksariyat mislsiz yuqori natijalarga intilish kabi global muammolar mavjud bo'lib, fan yo'nalishida kechiktirib bo'lmaydigan ilmiy izlanishlarni taqozo etadi:

1. Xotin-qizlar organizmiga mashg'ulot yuklamalarining ta'sir mexanizmlarini har tomonlama va to'liq o'rganish zarurati.
2. Xotin-qizlar organizmiga salbiy ta'siri bo'lmasan va optimal yuqori sport yutuqlariga erishish yo'nalishida metodikalarni ishlab chiqish.

Retrospektiv ma'lumotlarga ko'ra sport mashg'ulotlari nazariyasi va amaliyotida erkaklar va xotin-qizlarga birdek aloqador umumiy talablar qatorida aynan xotin-qizlarga xos tomonlar ham o'rinn tutgan. Xotin-qizlar organizmining funksional xususiyatlarini tasvirlash imkonini beruvchi alohida sport turlarining xususiy talablaridan kelib chiqadigan va organizmda kechadigan har xil moslashuv jarayonlarning kechish xususiyatlarini atroficha o'rganish bilan aniqlanadi.

3. Navbatdagi muhim muammo sifatida xotin-qizlar sporti yo'nalishida ijtimoiypsixologik, pedagogik asoslarni yaratish zaruratidir. Sportchi xotin-qizlar organizmiga xos tabiiy ehtiyojlaridan voz kechish orqali tom ma'noda sportcha turmush tarziga qat'iy rioya etish talablari mavjud. Inson borlig'ining ijtimoiy sahifasida ham oddiy hayot quvonchlarini, munosabatlarni ongli tarzda cheklash muhim ahamiyatga ega. Sport bilan muntazam shug'ullanadigan xotin-qizlar o'ta yuqori yuklamalarni boshdan kechirishi ayol organizmiga va uning reproduktiv salomatligiga ta'siri oqibatsiz o'tmasligi mumkin. Real sabab va oqibatlar majmuida xotin-qizlarning sport faoliyati bilan faol shug'ullanishlari uchun ulardan ongli munosabat, ham jismoniy ham psixik tayyorlik talab etiladi.

Katta yutuqlar sportida erkaklar ko'rsata olgan sport rekordlarni xotin-qizlar tomonidan takrorlay olishlari, yoki o'zib ketishlarini bashorat qilish mushkul bo'lsada, bu masalada ba'zi muayyan tendensiyalarini kuzatish mumkin. Bugungi kunda ayollarning emansipatsiya moslashuvi, ulardan sportda yildan-yilga yuqori natijalarni kutmoqda. Misol, xotin-qizlarning suzish sport turi bo'yicha jahon rekordlari, erkaklar rekordini ancha yildan beri takrorlamoqda.

Zamonaviy tendensiyalar ko'rinishida xotin-qizlar organizmidagi atletik shaklga xoslikning rivojlanib borayotganini e'tirof etish mumkin. "Atletizm" termini ma'nosida sportchi xotin-qizlar va erkaklarning qaddi-qomat shaklida farqning kamayib borishi e'tiborga olinmoqda. O'tgan asrning 80 - yillarida 100 va 1500 metr masofaga yugurish



musobaqalarida xotin-qizlar va erkaklar tomonidan ko'rsatilgan rekordlar orasidagi farqning qisqarib borishini kuzatish mumkin va holat hozirgacha davom etmoqda. Ilmiy tilda bayon etilsa - ushbu tasvirlanayotgan tendensiyaga ko'ra jinsiy farq yoki jinsiy "diformizm" ko'rinishlarining kamayib borishi bilan izohlash mumkin.

Xorijiy davlatlarda (Rossiya) o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra sportchi xotin-qizlarning aksariyatida interseksuallik (erkaklik, atletlik) fenotipi aniqlangan. Ushbu hodisani - sport ixtisosligi bilan bog'liq bo'lмаган 75 % sportchilar, shu o'rinda 98 % gimnastlarda, engil atletika bilan shug'ullanadiganlardan 70-90 % ayollarda, 71 % chang'i sportida, 67 % futbolchilarda va 44 % suzish sportchi ayollarida kuzatilgan. Sport yo'nalishida aniqlangan muammo jotin-qizlar "giperandrogeniya"si deb manbaalarda izoh berilgan [3]. Keltirilgan termin definitsiyasiga ko'ra xotin - qizlar organizmida kechishi mumkin bo'lgan me'yordan ortiq androgen sekretsiyalar ta'siri ostida shartlanadigan salbiy klinik o'zgarishlar e'tiborga olingan. Oddiy tilda, haddan ortiq jismoniy yuklama natijasida organizmda erkaklik jinsiy garmonlar salmog'ining oshib borishi bilan buyrak usti faoliyatini o'zgarishi va ulkan stress holatiga olib keladi.

Ginekologlar fikrlariga ko'ra, "giperandrogeniya" muammosining mohiyatida sportchi xotin-qizlarning sportdan keyingi homiladorlik davri patalogiyasida bepushtlik yoki shunga o'xhash salbiy tahdidlarga bosh sababdir.

Oliy ta'lim tizimida, jismoniy tarbiya nazariyasi va metodika fani ham o'quv, ham ilmiy fan sifatida o'qitiladi. Jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishida "Xotinqizlar sporti" guruhlarining ochilishi jamiyatda, shubhasiz ayol jismoniy tarbiya o'qituvchilarga, sport murabbiylarga, instruktor - metodistlarga bo'lgan ehtiyojning yildan-yilga oshib borishidan dalolat beradi. Jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasi bo'yicha o'qitiladigan mutaxasislik fanlar mazmunini xotin-qizlar sporti muammolari va qonuniyatlari talablarida optimallashtirish, ta'lim metodologiyasini qayta ko'rib chiqish - jamiyatimiz talabini sifatli ta'minlashning bosh shartidir.

Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodika fani ilmiy fan sifatida bir-necha asrlik tarixga ega. Fan yo'nalishida tadqiq etilgan ilmiy ishlarni retrospektiv o'rganish orqali ba'zi ahamiyatli qonuniyatlarni asosli tarzda e'tiborga olish talab etiladi.

Xotin-qizlar jismoniy ishchanligi erkaklar nisbatida 60-80 %ni tashkil etadi. Ishchanlik - organizm imkoniyati sifatida, aslida sportchining maxsus jismoniy tayyorgarlik tomonlarini ifodalaydi, dastlabki o'rganish jarayonida siklik sport turlariga xos maxsus chidamlilikning aniq tafsilotlariga asoslanish mumkin bo'ladi. Aksariyat manbalarda uchraydigan "ishchanlik" (shartli belgi, P) iborasi ishlatilganda, bu yo'nalishning ba'zi hodisalar mohiyatini aks etishlarda prinstipial bo'lgan fikr va munosabatlar tarqoqli kuzatilgan. Bu holat, xotin-qizlar va erkaklar sportida uchun alohida metodikalar, baholash mezonzlari va ishchanlik parametrlarini standartlashtirishga qaratilgan ishlanmalarni yaratishga shubhasiz salbiy ta'siri mavjud. Ilmiy mulohazalarda ta'kidlanishicha, mazkur masala bilan bog'liq bo'lgan amalda mavjud barcha ifodalanishlar (tafsiflanishlar) baholash mezonzlari rasmiy mantiqqa zid bo'lib, faqat ayrim vaziyatlarga taalluqlidir, ko'p hollarda ishchanlik iborasi o'rniga tayyorgarlik, sportchi holati, mashq ko'rganlik iboralari orqali pedagogik hodisalar tahlil qilingan. Mashq ko'rganlik (yoki, mashq bilan chiniqqanlik) - organizmning muayyan holati bo'lib, mashq ta'sirida uning morfologik va funkstional xususiyatlari parametrlarida



kechadigan o'zgarishlarni bildiradi. Mashq ko'rganlik va jismoniy tayyorgarlik ta'riflarining asl mohiyatini, faqat sportchining barcha majmuaviy tibbiy tekshiruv parametrlarini uning organizmining funkstional holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar bilan solishtirish orqali hosil qilish mumkin.

Ishchanlik bu organizm va uning alohida organ va tizimlariga xos ishni, funkstiyani uddalay olish qobiliyati bo'lib, uning o'lchovlariga asoslangan baholash tartibi va qiyosiy xususiyatlari amaliy ahamiyat kasb etadi.

Aksariyat sport sohasining barcha mutaxasislarida "ishchanlik" iborasi o'zining aniq, ravshan ma'nosi bilan muammoli vaziyatlar tahlilida mustahkam o'rin olgan va bundan keyin uning asosiy xususiyatlarini qaytatdan rasmiylashtirishga hojat bo'lmasa kerak.

Miqdoriy va sifat parametrlarida chegaraviy shiddat yoki vaqt davomiyligida kechadigan mashg'ulot natijasida sodir bo'ladigan organizmning maksimal kuchlanishli faoliyat effektiga xos xususiyatlar, aynan ishchanlikning asosiy farqlanish nishonalari hisoblanadi.

Asosiy muammoga qaytadigan bo'lsak, xotin-qizlarning jismoniy yuklama ta'siriga moslashuv (adaptatsiya) jarayoni organizm funksiyalarining zo'riqishi va juda sekinlikda qayta tiklanishi bilan xarakterlanadi. Ba'zi salbiy muhit sharoitlariga o'ta ta'sirchan va psixik qo'zg'aluvchan. Mashq ko'rganlik darajasining o'sib borishi bilan tabiiyki funkstional imkoniyatlar doirasi kengayib borsa-da, hattoki bir qator parametrlar bo'yicha erkaklarga yaqinlashsa-da, bugungi kunda asosiy harakatlanish qobiliyatları bo'yicha etishish imkoniyatining yo'qligi, ahamiyatsizligi aniq. Xotinqizlar organizmining jismoniy, psixik va adaptatsion-moslashuv xususiyatlari faqat muayyan sport turlari bilan shug'ullanishni taqozo etadi, boshqlarida natijaga erishish jarayonini qiyinlashtiradi va eng asosiysi barkamol shaxs sifatlariga zid holatni keltirib chiqorishi mumkin. Muammo yuzasidan xotin-qizlarning kurash, dzyudo, futbol, og'ir atletika, pauerlifting, xokkey, futbol, boks sport turlari bilan shug'ullanishlari nomunosib degan qarashlar va ularga qarshi fikrlar bahsmunozaralarga sabab bo'lmoqda. Hozirga qadar na fundamental na akademik fan yo'nalishida xotin-qizlar sporti muammolari bo'yicha muddatli jarayon dinamik tasviri, qiyosiy kuzatuvlarga asoslangan tadqiqot natijalarining etishmasiligi sababli yakdil yondashuvga erishib bo'lmasligi e'tirof etiladi. Qarshi fikrlar asosida ayol va erkaklarda chidamlilik qobiliyatini rivojlantirish imkoniyatlari bo'yicha farq unchalik katta emas, ba'zida taxminan bir xil deb hisoblaydiganlar ham bor. CHunki ulardag'i qon aylanish apparati va aerob quvvat ta'minot tizimini shug'ullanish mexanizmlarida anchagina o'xshashlik bor. Tizimli, muntazam mashg'ulotlar orqali erkaklar darajasida xotin-qizlarning potensial imkoniyatlarini yaqinlashtirish mumkin. Ayollar erkaklarga nisbatan chidamliligi to'g'risida ilmiy faktlar ham mavjud. Masalan, xotin-qizlar erkaklarga nisbatan uzoq vaqt va masofalarda yugurish yuklamalariga yaxshi dosh bera olishadi. Aynan, uzoq vaqt suzish rekordi ayollar tomonidan qayd etilgan. Jismoniy yuklama ta'sirida ter ajralish anchagina past bo'lib, faqat tashqi muhitning yuqori harorat sharoitida boshlanadi.

Xotin-qizlar sporti mavzusida o'zaro keskin qarama-qarshi bo'lgan ilmiy faktlar asosidagi ikki yo'nalishli muammoni tushunish mumkin. Bir tomondan, xotin-qizlar sportini rehabilitatsiyalash tarafdozlari, ikkinchi tomondan sport bilan shug'ullanishning diagnostika usullarini joriy etish orqali ilk boshlanish davrlarida giperandrogeniya patologik asoratlarini oldini olishga qaratilgan muammolardir.



E'tirof etilayotgan mustaqil fikrlardan faqat bir masala aniq-ravshanki, xotinqizlarning u yoki bu sport turi bilan shug'ullanish istaklarini chegaralash mumkin emas, chunki ularning sportga bo'lgan munosabatlarida ham erkaklarga nisbatan farq mavjud.

### **References:**

1. Abdurakhmonov, A. A., & Dadabayeva, N. A. PREVENT SERIOUS INFECTIOUS DISEASES AND THEIR SPREAD PRECAUTIONARY MEASURES.
2. Abdurakhmonov, A. THE CONCEPT OF NATURE AND HEROES IN "ROCKS ALSO CRY". EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR), 1, 481.
3. Abdurashid, A. (2023). Efficient Method Of Biogas Production. Eurasian Journal of Engineering and Technology, 17, 28-34.
4. Рахимов, А. Ю., Абдурахмонов, А. А., & Сулаймонов, Ш. А. (2015). Изучение состояния использования ваты-сдира и пути повышения качества коконного сырья. Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов, (4), 152-157.
5. Jalilov, A., Нилуфар, К., & Xalmatov, M. (2023). WAYS TO IMPROVE THE EFFECTS OF HEAVY METALS IN THE ATMOSPHERE ON LANDSCAPE TREES AND SOILS. © 000 «МОЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КАРЬЕРА».
6. Jalilov, A., & JALILOV, A. (2022). O'zbekiston respublikasi atrof-tabiiy muhit va ekologiyaning yomonlashuvi bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish muammolari.
7. Jalilov, A. (2022). MODEL FOR IDENTIFICATION AND ANALYSIS OF PROBLEMATIC ISSUES IN THE ACTIVITIES OF OFFICIALS OF THE NATIONAL CENTER FOR ACTION AND MANAGEMENT OF EMERGENCY SITUATIONS OF THE MINISTRY OF EMERGENCY SITUATIONS. Scienceweb academic papers collection.
8. Jalilov, A., & JALILOV, A. (2022). Improving Ways to Raise Earthquake Sustainability of the Individual Buildings in Uzbekistan.
9. Jalilov, A. (2021). O'zbekistonda individual ravishda qurilgan binolarning zilzilabardoshligini oshirish yo'llarini takomillashtirish.
10. Ahmadbek, J. (2023). FAVQULODDA VA EKOLOGIK OFAT HOLATLARIDA KORXONA BOSHQARUVI. Involta Scientific Journal, 2(4), 122-130.
11. Нилуфар, К., Jalilov, A., & Xalmatov, M. (2023). «EFFECT OF HARMFUL SUBSTANCES IN THE ATMOSPHERE ON TREE COVER». © 000 «МОЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КАРЬЕРА».
12. Jalilov, A. (2023). «LOYDAN TIKLANGAN DEVORLAR MUSTAHKAMILIGINI O'RGANISH». © 000 «МОЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КАРЬЕРА».
13. Jalilov, A. (2023). Enterprise Management in Emergency and Environmental Disaster Situations. [Www.grnjournal.us](http://www.grnjournal.us).
14. Жалилов, А. (2022). Модель для выявления и анализа проблемных вопросов в деятельности должностных лиц национального центра действий и управления чрезвычайными ситуациями министерства по чрезвычайным ситуациям. in Library, 22(4), 25-32.
15. Tursunov, X. T., & Rahimova, T. U. (2006). Ekologiya.
16. Khalmatov, M., Khozhimatov, A., Khamrakulov, A. G., & Khusanov, D. D. (2013). THE ROLE OF GREEN SPACES IN IMPROVING THE MICROCLIMATE OF THE ATMOSPHERIC ENVIRONMENT. SCIENCE AND WORLD, 23.



17. Nafasova, D. (2022). TABIIY RESURSLARNI BOSHQARISH, EKOLOGIYA VA ATROF-MUHIT MUHOFAZASI. *Scientific progress*, 3(3), 739-744.
18. Jalilovna, Q. N., Rustamjon o'gli, Y. D., Xosiljon o'g'li, M. J., & Isroiljonovich, I. O. (2021, January). HIMOYA GAZLARI MUHITIDA PAYVANDLASHDA MEHNAT MUHOFAZASI. In *Archive of Conferences* (Vol. 13, No. 1, pp. 47-48).
19. Кобулова, Н. Ж., & Нарзиев, Ш. М. (2021, December). ХОДИМЛАРНИГ МЕҲНАТИНИ МУҲОФАЗА ҚИЛИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ ЙЎЛЛАРИ. In Здравствуйте, уважаемые участники международной научной и научно-технической конференции, дорогие гости (р. 485).
20. Кабулова, Н. Ж. (2020). Традиционно-национальный узбекский головной убор мужчин (тюбетейка-дуппи) ферганской долины. *Universum: технические науки*, (8-2 (77)), 10-12.
21. Qobulova, N. J., Abdumatalibov, J., & Akbarov, A. (2022). ISHLAB CHIQARISH KORXONASIDA MEHNAT XAVFSIZLIGINI BOSHQARISH TIZIMI (MXBT) NI TAHLILI. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 1(6), 218-223.
22. Кабулова, Н. Д., Ходжаулов, М. Н., & Рахимов, Д. Б. (2021). АКТУАЛЬНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПРОГРАММНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ (ПОИСКОВО-ИНФОРМАЦИОННАЯ КАРТОГРАФИЧЕСКАЯ СЛУЖБА, ГЕОЛОКАЦИЯ) В ПОДРАЗДЕЛЕНИЯХ МИНИСТЕРСТВА ПО ЧРЕЗВЫЧАЙНЫМ СИТУАЦИЯМ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН. *Universum: технические науки*, (7-1 (88)), 14-17.
23. Халматов, М. М., Исмаилходжаев, Б. Ш., Кабулова, Н. Ж., & Хусанов, Д. Д. (2021). ГЕОФИЗИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ РАСПРЕДЕЛЕНИЯ АТМОСФЕРНЫХ ЗАГРЯЗНИТЕЛЕЙ В АНДИЖАНЕ НА ОСНОВЕ УРАВНЕНИЙ АЭРОДИНАМИКИ. *Universum: химия и биология*, (6-1 (84)), 30-34.
24. Алимова, Х. А., Арипджанова, Д. У., Хайдаров, К. Б., & Кабулова, Н. Ж. (2013). Фрикционные свойства натурального шелка. Ж. Композиционные материалы.–2013, 2, 25-27.
25. Qobulova N.J., Abdurahmonov A., Musaev M., & Mahkmudov Sh. (2022). DEVELOPMENT OF SAFE TECHNOLOGY OF FUEL BRIQUETTES BASED ON FOOD AND AGRICULTURAL ORGANIC WASTE. *Экономика и социум*, (2-2 (93)), 312-315.
26. Muhammato'vich, H. M., & Muxtorjond, X. (2022). ELIMINATION OF POLLUTIONS IN THE ATMOSPHERIC AIR'RGANISH. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 6, 43-47.
27. Halmatov, M. M., Ismayilkhodjaev, B. S., & Khamrakulov, A. G. (2019). GEOPHYSICAL MODELING OF THE DISTRIBUTION OF POLLUTANTS IN THE ATMOSPHERE OF ANDIJAN BASED ON THE AERODYNAMIC EQUATION. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(9), 70-77.
28. Халматов, М., Хожиматов, А., Хамракулов, А. Г., & Хусанов, Д. Д. (2018). РОЛЬ ЗЕЛЁНЫХ НАСАЖДЕНИЙ В УЛУЧШЕНИИ МИКРОКЛИМАТА АТМОСФЕРНОЙ СРЕДЫ. *Наука и мир*, 2(12), 20-23.
29. Халматов, М. М., Хожиматов, А., Содиков, К., & Солижонов, С. Э. (2017). ВЛИЯНИЕ АТМОСФЕРНОЙ ПОГОДЫ НА МИКРОКЛИМАТ ДЕРЕВЯННЫХ НАСАЖДЕНИЙ. In *Научно-*



практические пути повышения экологической устойчивости и социально-экономическое обеспечение сельскохозяйственного производства (pp. 110-112).

30. Khalmatov, M., Khozhimatov, A., Khamrakulov, A. G., & Khusanov, D. D. (2013). THE ROLE OF GREEN SPACES IN IMPROVING THE MICROCLIMATE OF THE ATMOSPHERIC ENVIRONMENT. SCIENCE AND WORLD, 23.